

Favqulodda vaziyatlar xavfi tugʻilganda va sodir boʻlganda aholini koʻchirish tadbirlarini tashkillashtirish

Raxmatilla Ermatovich Nurmatov

Toshkent viloyati Favqulodda vaziyatlar bosh boshqarmasi Hayot faoliyati xavfsizligi oʻquv markazi

Annotatsiya: Mazkur maqolada favqulodda vaziyatlar yuzaga kelish xavfi mavjud boʻlgan hamda ular sodir boʻlgan sharoitlarda aholini xavfsiz hududlarga koʻchirishni tashkil etish masalalari yoritilgan. Favqulodda vaziyatlar sharoitida aholini, moddiy va madaniy boyliklarni evakuatsiya qilishning mohiyati, turlari, usullari va uni tashkil etish tizimi tahlil qilingan. Shuningdek, evakuatsiya tadbirlarini amalga oshirish bosqichlari, boshqaruv organlari faoliyati hamda tashkilotlar oʻrtasidagi hamkorlik masalalari koʻrib chiqilgan. Turli favqulodda vaziyatlarda, jumladan zilzila, suv toshqini, kimyoviy va radiatsion xavf yuzaga kelganda evakuatsiyaning oʻziga xos jihatlari yoritilgan.

Kalit soʻzlar: favqulodda vaziyat, evakuatsiya, aholini koʻchirish, xavfsiz hudud, fuqaro muhofazasi, xavf zonasi, transport, piyoda koʻchirish, yigʻilish punktlari, boshqaruv tizimi

Organization of evacuation measures in case of emergency situations and their occurrence

Rakhmatilla Ermatovich Nurmatov

Tashkent regional Main Department of Emergency Situations Life Safety Training Center

Abstract: This article covers the issues of organizing the evacuation of the population to safe areas in conditions where there is a risk of emergency situations and their occurrence. The essence, types, methods and system of organization of evacuation of the population, material and cultural assets in emergency situations are analyzed. The stages of implementation of evacuation measures, the activities of management bodies and issues of cooperation between organizations are also considered. The specific aspects of evacuation in various emergency situations, including earthquakes, floods, chemical and radiation hazards, are covered.

Keywords: emergency situation, evacuation, evacuation of the population, safe area, civil protection, danger zone, transport, pedestrian evacuation, assembly points, management system

Kirish

Bugungi kunda tabiiy va texnogen tushdagi favqulodda vaziyatlar inson hayoti va sogʻligʻi, iqtisodiyot tarmoqlari hamda jamiyat barqarorligiga jiddiy xavf tugʻdirmoqda. Zilzilalar, suv toshqinlari, koʻchkilar, yongʻinlar, radiatsion va kimyoviy avariylar kabi hodisalar koʻplab insonlar hayotiga xavf soladi. Shu sababli favqulodda vaziyatlar sodir boʻlishining oldini olish, ularning oqibatlarini kamaytirish va aholini himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi.

Favqulodda vaziyatlarda aholini himoya qilishning eng muhim usullaridan biri - evakuatsiya tadbirlarini samarali tashkil etishdir. Evakuatsiya aholini xavfli hududlardan xavfsiz joylarga vaqtincha yoki doimiy ravishda koʻchirish jarayonini anglatadi. Ushbu tadbir insonlar hayoti va sogʻligʻini saqlab qolish, moddiy va madaniy boyliklarni asrash hamda favqulodda vaziyat oqibatlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Favqulodda vaziyatlarda aholini koʻchirish tadbirlarini puxta rejalashtirish, boshqarish va amalga oshirish favqulodda vaziyatlarning salbiy oqibatlarini sezilarli darajada kamaytiradi. Shu bois ushbu masala dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Evakuatsiyaning mohiyati va ahamiyati

Aholini koʻchirish - favqulodda vaziyat yuzaga kelgan yoki yuzaga kelishi ehtimoli mavjud hududlardan odamlarni transport vositalari yoki piyoda tartibda xavfsiz joylarga olib chiqish hamda ularni vaqtincha joylashtirish choralaridir.

Evakuatsiyaning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- inson hayoti va sogʻligʻini saqlash;
- moddiy va madaniy boyliklarni asrash;
- favqulodda vaziyat oqibatlarini kamaytirish;
- aholi xavfsizligini taʼminlash.

Evakuatsiya tadbirlarining samaradorligi quyidagi omillarga bogʻliq boʻladi:

- favqulodda vaziyat turi;
- xavf zonasi koʻlami;
- aholi soni;
- vaqt omili;
- transport va infratuzilma imkoniyatlari;
- boshqaruv tizimining tezkorligi.

Favqulodda vaziyatlarda aholini oʻz vaqtida ogohlantirish va xavfsiz hududlarga koʻchirish koʻplab insonlar hayotini saqlab qolishga xizmat qiladi.

Evakuatsiya turlari va variantlari

Oʻtkazilish vaqtiga koʻra

Oldindan evakuatsiya

Favqulodda vaziyat yuzaga kelish ehtimoli haqida ishonchli ma'lumot mavjud bo'lganda oldindan evakuatsiya amalga oshiriladi. Bunday holatda aholini xavfsiz hududlarga tartibli ravishda ko'chirish imkoniyati yuqori bo'ladi. Oldindan evakuatsiya bir necha soatdan bir necha sutkagacha davom etishi mumkin.

Mazkur turdagi evakuatsiya, asosan:

- suv toshqinlari;
- kuchli dovullar;
- gidrotexnik inshootlar buzilish xavfi;
- kimyoviy avariya xavfi mavjud hollarda qo'llaniladi.

Shoshilinch evakuatsiya

Favqulodda vaziyat allaqachon sodir bo'lgan va aholi hayotiga bevosita xavf tug'dirgan holatlarda shoshilinch evakuatsiya amalga oshiriladi. Bunda vaqt omili muhim ahamiyatga ega bo'lib, odamlarni imkon qadar tez xavfsiz hududlarga olib chiqish talab etiladi.

Shoshilinch evakuatsiya:

- zilzilalar;
- yirik yong'inlar;
- portlashlar;
- texnogen avariya;
- radiatsion xavf holatlarida amalga oshiriladi.

Ko'lamiga ko'ra

Cheklangan evakuatsiya

Favqulodda vaziyat ta'sir doirasi kichik hududni qamrab olgan hollarda amalga oshiriladi. Bunda ko'chiriladigan aholi soni bir necha ming kishidan oshmaydi.

Mahalliy evakuatsiya

Mahalliy evakuatsiya shahar, tuman yoki yirik aholi punktlari doirasida o'tkaziladi. Ko'chiriladigan aholi soni o'n minglab kishilarga yetishi mumkin.

Mintaqaviy evakuatsiya

Mintaqaviy evakuatsiya katta hudud va ko'p sonli aholini qamrab oladi. Bunday hollarda aholi doimiy yashash joyidan ancha uzoq hududlarga ko'chirilishi mumkin.

Qamrovi bo'yicha

Yalpi evakuatsiya

Favqulodda vaziyat hududidagi barcha aholini xavfsiz joylarga olib chiqish nazarda tutiladi.

Qisman evakuatsiya

Faqat aholining himoyaga muhtoj qatlamlari:

- bolalar;
- qariyalar;
- nogironligi bo'lgan shaxslar;

- homilador ayollar xavfsiz hududlarga ko'chiriladi.
- Evakuatsiyani tashkil etish tizimi

Favqulodda vaziyatlarda evakuatsiya tadbirlarini tashkil etish davlat boshqaruvi organlari hamda fuqaro muhofazasi tizimi zimmasiga yuklatiladi.

Evakuatsiyani tashkil etishda quyidagi tuzilmalar ishtirok etadi:

- evakuatsiya hay'atlari;
- yig'ilish punktlari;
- qabul qilish punktlari;
- oraliq punktlar;
- tezkor guruhlar;
- tibbiy xizmatlar;
- huquqni muhofaza qiluvchi organlar.

Ularning asosiy vazifalari:

- aholini ogohlantirish;
- ro'yxatga olish;
- transport vositalariga taqsimlash;
- jamoat tartibini saqlash;
- xavfsiz hududlarga joylashtirish;
- tibbiy yordam ko'rsatish.

Evakuatsiya tadbirlariga umumiy rahbarlik fuqaro muhofazasi boshliqlari tomonidan amalga oshiriladi. Hududiy va obyekt darajasidagi boshqaruv organlari evakuatsiya rejalarini ishlab chiqadi hamda ularning bajarilishini nazorat qiladi.

Evakuatsiya usullari

Favqulodda vaziyatlarda aholini ko'chirish quyidagi usullarda amalga oshiriladi:

Transport yordamida evakuatsiya

Aholi avtobus, poyezd, maxsus avtomobillar va boshqa transport vositalari orqali xavfsiz hududlarga olib chiqiladi. Bu usul eng qulay va tezkor hisoblanadi.

Piyoda evakuatsiya

Transport vositalari yetishmagan yoki yo'llar shikastlangan hollarda aholi piyoda ko'chiriladi. Piyoda harakatlanayotgan aholi kolonnalarga bo'linadi.

Odatda:

- kolonna tarkibi 500-1000 kishidan iborat bo'ladi;
- har bir guruh 50-100 kishiga bo'linadi;
- harakat tezligi soatiga 3-4 km etib belgilanadi.

Har 1,5 soatda qisqa dam olish tashkil etiladi.

Aralash usul

Transport va piyoda harakatni birlashtirgan usul eng samarali hisoblanadi. U favqulodda vaziyat sharoitiga qarab qo'llaniladi.

Evakuatsiya bosqichlari

Evakuatsiya jarayoni odatda uch bosqichda amalga oshiriladi.

1. Tayyorlov bosqichi

Bu bosqichda:

- xavf darajasi baholanadi;
- evakuatsiya rejasi ishlab chiqiladi;
- transport vositalari tayyorlanadi;
- yo'nalishlar belgilanadi;
- aholi ogohlantiriladi.

2. Asosiy bosqich

Asosiy bosqichda:

- aholi yig'ilish punktlariga to'planadi;
- ro'yxatga olinadi;
- transport vositalariga joylashtiriladi;
- xavfsiz hududlarga olib chiqiladi.

3. Joylashtirish bosqichi

Evakuatsiya qilingan aholi:

- vaqtincha yashash joylari bilan ta'minlanadi;
- oziq-ovqat bilan ta'minlanadi;
- tibbiy yordam oladi;
- sanitariya-gigiyena sharoitlari yaratiladi.

Turli favqulodda vaziyatlarda evakuatsiya xususiyatlari

Zilzila vaqtida

Zilzila vaqtida evakuatsiya juda tezkor amalga oshiriladi. Bunda:

- vayron bo'lgan binolardan odamlarni chiqarish;
- ochiq maydonlarga yig'ish;
- xavfli hududlardan uzoqlashtirish

asosiy vazifalar hisoblanadi.

Zilzila sharoitida transport tizimi izdan chiqishi mumkinligi sababli piyoda evakuatsiya keng qo'llaniladi.

Suv toshqini vaqtida

Suv toshqinlarida oldindan prognoz qilish imkoniyati mavjud bo'lgani sababli oldindan evakuatsiya muhim ahamiyatga ega.

Bunda:

- aholini baland hududlarga ko'chirish;
 - chorva mollari va moddiy boyliklarni olib chiqish;
 - gidrotexnik inshootlarni nazorat qilish
- muhim vazifalar hisoblanadi.

Kimyoviy va radiatsion xavf holatlarida

Kimyoviy va radiatsion avariylar inson salomatligi uchun nihoyatda xavfli hisoblanadi. Bunday vaziyatlarda evakuatsiya ikki bosqichda amalga oshiriladi:

1. aholini xavf zonasidan chiqarish;
2. xavfsiz hududlarga joylashtirish.

Kimyoviy va radiatsion muhofazaning asosiy vazifalari:

- vaziyatni oldindan baholash;
- aholini o'z vaqtida ogohlantirish;
- shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlash;
- nazorat va monitoring olib borish;
- zarur kuch va vositalarni doimiy shay holatda saqlashdan iborat.

Aholi evakuatsiya to'g'risida ko'rsatma olgach:

- zarur hujjatlarini;
- 2-3 kunga yetadigan oziq-ovqat va suvni;
- dori-darmonlarni;
- shaxsiy himoya vositalarini

tayyorlab belgilangan yig'ilish punktlariga yetib borishi lozim.

Evakuatsiya samaradorligini ta'minlash omillari

Evakuatsiya tadbirlarining muvaffaqiyati quyidagi omillarga bog'liq:

- puxta rejalashtirish;
- tezkor boshqaruv;
- aholining tayyorgarligi;
- transport vositalarining yetarliligi;
- aloqa va axborot tizimlarining samaradorligi;
- tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlik.

Aholining favqulodda vaziyatlarda harakat qilish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirish ham muhim ahamiyatga ega.

Xulosa

Favqulodda vaziyatlarda aholini evakuatsiya qilish inson hayoti va sog'lig'ini saqlab qolishning eng muhim vositalaridan biridir. Evakuatsiya tadbirlarini samarali tashkil etish uchun barcha bosqichlar puxta rejalashtirilishi, boshqaruv organlari va tashkilotlar o'zaro hamkorlikda faoliyat yuritishi hamda aholi doimiy ravishda tayyorlab borilishi zarur.

Oldindan ishlab chiqilgan va amaliyotda sinovdan o'tgan evakuatsiya tizimi favqulodda vaziyatlar oqibatlarini kamaytirishga xizmat qiladi. Shu bois fuqaro muhofazasi tizimini takomillashtirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va aholini tayyorlash bo'yicha ishlarni muntazam ravishda davom ettirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolar muhofazasi to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining favqulodda vaziyatlar sohasiga oid qarorlari va nizomlari.
3. O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi. Aholini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma. — Toshkent.
4. Bekturov D.X. Aholini zilzilalar oqibatida yuzaga keladigan favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash. — “Science and Education”, 7-jild, 2-son, 61–63-betlar.
5. Favqulodda vaziyatlarda harakat qilish qoidalari. — Toshkent: FVV nashriyoti.
6. Fuqarolar muhofazasi va hayot faoliyati xavfsizligi. Darslik. — Toshkent.